

Xavfsizlikka tahdid: korrupsiya taraqqiyot kushandasi

«Hech shubhasiz, mamlakatda korrupsiyaga qarshi kurashning darajasi, uning amaliy samarasi ko‘p jihatdan huquq-tartibot, prokuratura va sud organlari tizimining o‘zida bu illatga qarshi qanday kurash olib borilayotgani bilan bog‘liqdir».

I.Karimov

Ma’lumki, korrupsiya har qanday jamiyatning siyosiy va iqtisodiy rivojlanishiga zarar yetkazadi, davlatning konstitutsiyaviy asoslarini hamda jamiyatning ma’naviy-ahloqiy asoslarini yemiradi, dekmokratik institutlar va qonunustivorligini kuchsizlantiradi, fuqarolarning huquq va erkinliklarini jiddiy tarzda buzilishiga olib keladi. Korrupsiya uyushgan jinoyatchilikni, terrorizmni va insoniyat xavfsizligiga qarshi qaratilgan boshqa tahidlarning o’sishiga yordam beradi.

Bejiz emaski, muhtaram yurtboshimiz ushbu muammoga doimo katta ahamiyat berib kelmoqdalar va mamlakatimiz hayotiga tahlika solayotgan turli xavf-xatarlar haqida gap yuritib, birinchi galda amaldorlar orasidagi korruptsiya, poraxo‘rlik, tamagirlilik kabi jinoyatni ichidan yemiradigan, yaramas illatlarni yo‘q qilishga alohida e’tibor berish zarurligini bir necha bor ta’kidlab o’tganlar.

Korrupsiya – illat, korrupsiya – taraqqiyot kushandasi. Mamlakatimizda mustaqillik yillarda ushbu illatga qarshi kurash qator chora tadbirdilar kompleksi ishlab chiqilib, samarali amalga oshirilib kelinmoqda.

Korrupsiyaga qarshi kurash sohasida xabardorligi darajasini oshirish va ularga axborot berish maqsadida joriy yilning 26-fevral kuni O’zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligida “Xavfsizlikka tahdid : korrupsiya taraqqiyot kushandasi” mavzusiga bag‘ishlangan tadbir bo‘lib o’tdi. Unda, O’zbekiston Respublikasi “Ma’naviyat targ‘ibot markazi”ning huquqiy targ‘ibotlar bo‘yicha katta inspektori Muhammadali Eshnazarovning ma’ruzasi tinglandi.

- O’zbekistonda ham korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan xalqaro hujjatlar ratifikatsiya qilingan bo‘lib, korruptsiya va jinoyatchilikka qarshi milliy qonunchilik tizimi yaratilgan, deydi Muhammadali Eshnazarov. - O’zbekiston bu borada qat’iy qadam tashlab bormoqda. Xusan, 1997-yilda qabul qilingan

O'zbekiston Respublikasining Milliy xavfsizlik konseptsiyasida korruptsiya mamlakatning milliy xavfsizligiga tahdidlardan biri, deya e'tirof etildi. Shu maqsadda "Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish Milliy dasturi" qabul qilinib, hayotga tatbiq etildi. Mamlakatimiz 2008-yil 7-iyulda BMTning yuqorida ko'rsatib o'tilgan Konventsiyasiga qo'shildi. Davlatimiz rahbarining 2012-yilning 29-oktabrda qabul qilingan "Korruptsiyaga qarshi kurash to'g'risida"gi qonun loyihasini tayyorlash chora-tadbirlari dasturi haqida"gi Farmoyishi ushbu yo'nalishda amalga oshirilayotgan choralarini yanada kuchaytirdi.

Ma'ruzachi, korrupsiyaning demokratiya va huquq ustuvorligi asoslariga putur yetkazishi, inson huquqlari buzilishiga olib kelishi, hayot sifatini yomonlashtirishi va milliy xavfsizlikka tahdid solishi haqida fikr yuritib, bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida yurtimizda korruptsiyaga qarshi kurashish yo'nalishida mustahkam huquqiy baza va aniq tizim shakllanganligini ta'kidladi.

Aytish joizki, hozirgi kunda dunyo miqyosida hal etilishi lozim bo'lgan eng birlamchi masalalardan biri korruptsiya muammosidir. Shu bois unga qarshi kurash xalqaro miqyosga ko'tarilib, jahon siyosatining muhim masalalaridan biriga aylandi. Binobarin, ushbu illat nafaqat islohotlar yo'liga jiddiy to'siq bo'lishi, balki o'tish davrida belgilangan maqsadlarga erishishga ham bevosita tahdid tug'dirishi barchaga ma'lum.

Mamlakatimizda mazkur muammoga qarshi kurash masalasiga mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq jiddiy e'tibor qaratib kelinayotir. O'tgan davr mobaynida korruptsiya va jinoyatchilikka qarshi kurashish hamda uning oldini olishga qaratilgan mustahkam huquqiy baza va tizimli amaliyot shakllandi. Eng avvalo, respublikamizda Birlashgan Millatlar Tashkiloti homiyligida qabul qilingan EKOSOSning Korruptsiyaga qarshi kurash rezolyutsiyasi, Davlat mansabdor shaxslarining xalqaro axloq kodeksi, xalqaro tijorat tashkilotlarida korruptsiya va poraxo'rlikka qarshi kurash haqidagi deklaratsiya, Millatlararo uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash konventsiyasi va boshqa xalqaro hujjatlarning qabul qilingani mazkur illatga qarshi kurashda muhim omil vazifasini o'tamoqda.

Ma'ruza mavzu yuzasidan savol-javob va qizg'in munozaralarga ulanib, yig'ilganlar juda zarur ijtimoiy-huquqiy bilimlarga ega bo'ldilar.

Tadbirda Agentlik Markaziy apparati, ATRNTT Respublika markazi, Avtodaryotrans-Ilm davlat ilmiy-metodik markazi, Agentlikning Toshkent shahri va viloyati hududiy bo'limlari xodimlari ishtirok etishdi.